

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING AHAMIYATI

*Kalandarova Fazilat Toxirovna*

*Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi*

*Oripjonova Dilrabo Erkinjonovna*

*Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

*University of Business and Science*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda badiiy adabiyotdan foydalanishning afzalliklarining ilmiy va nazariy asoslari atroflicha yoritilib beriladi.

**Аннотация:** в данной статье подробно изложены научно-теоретические основы преимуществ использования художественной литературы в развитии коммуникативной компетентности учителя начальной школы.

**Abstract:** in this article, the scientific and theoretical basis of the advantages of using fiction in the development of the communicative competence of the elementary school teacher is detailed.

**Kalit so‘zlar:** kommunikativ kompetentlik, muloqot, badiiy adabiyot, xalq og‘zaki ijodi, ta‘lim, tarbiya, kasbiy faoliyat.

**Ключевые слова:** коммуникативная компетентность, общение, художественная литература, фольклор, образование, обучение, профессиональная деятельность.

**Key words:** communicative competence, communication, fiction, folklore, education, training, professional activity.


Bugungi kunda yosh avlodni mukammal va bugungi zamon talablariga javob berdigan shaxs qilib tarbiyalash, asosiy va ustuvor vazifalarimizdandir. Chunki buguni davrda yoshlarni xar tomonlama himoya qilish, yot va begona ta‘sirlardan himoya qilish, haqiqiy pedagogning asosiy funksional vazifalaridan biri bo‘lishi kerak. Zero, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “-Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta‘sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma‘naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur”. [1]

Xalqimiz o‘zining boy me‘rosidan, bolaning shaxs sifatida shakllanishi uchun xali xam o‘z ijobiy ta‘siriga ega bo‘lgan an‘ana va qadriyatlardan foydalanib ta‘lim va

tarbiya jarayonlarini olib bormoqda. Maktab ta'limida xam xalq og'zaki ijodi va badiiy adabiyotimiz na'munalaridan foydalanish ayniqsa, boshlang'ich ta'limi o'qituvchilari faoliyatida muhim omillardan biridir. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan, kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, urf-odat va an'analarning ta'sir doirasi o'zining salmoqli o'rniga ega. Bular orasida badiiy adabiyot boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyatdagi nutqiy kompetentligini oshirish uchun xizmat qiladi. Chunki, badiiy adabiyot o'zining ta'sir kuchi yuqoriligi uchun ham bolalarga ta'lim-tarbiya berishda samarasiga ega bo'lgan vositalardandir.

Bugungi kun o'qituvchisi o'z ixtisosligi bo'yicha ta'lim va tarbiya ishlari yuzasidan jamiyat oldida mas'uldir. U muntazam ravishda o'z kasbiy tayyorgarligini takomillashtirib borish bilan birgalikda o'qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, pedagog huquqiga ega bo'lishi, aniqrog'i, kasbiy kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Endilikda o'qituvchi uchun o'zi tanlagan kasb, fan, mutaxassislik borasidagi amaliy va nazariy bilimlarni puxta egallash kamlik qilib qoldi. U har qanday vaziyatda ta'lim-tarbiyani yangi-yangi usul va metodlarini o'z faoliyatida qo'llay olishi, bir so'z bilan aytganda, kompetensiya egasi bo'lishi lozim. Bu jarayonda nutqiy kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy kompetentlik – o'qituvchidan to'laonli muloqotchanlikni talab etadi. Har qanday vaziyatda o'quvchi va jamoa a'zolari bilan ijobiy munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Bu jarayonda badiiy adabiyotdan va so'z sehridan o'rinli foydalanish o'qituvchi nutqining ta'sirchanligini oshiradi. Bola maktabgacha ta'lim muassasasidan, maktab hayotiga moslashuv davrida, unga bog'cha hayotiga yaqin bo'lgan sharoit va muhit uning moslashuvini tezlashtiradi va osonlashtiradi. Bu jarayonda o'qituvchi o'z faoliyatida badiiy adabiyotning xalq og'zaki ijodidan ko'proq foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Xalq og'zaki ijodidan samarali foydalaish natijasida, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kommunikativ kompetentligi rivojlanib boradi. Boshlan'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyatida badiiy adabiyotning xalq og'zaki ijodi janridan foydalanish juda ko'p afzalliklarga ega.



1-rasm.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyatida badiiy adabiyotdan foydalanishi natijasida uning kommunikativ kompetentligida quyidagi xususiyatlar tarkib topadi;

- o'qituvchi nutqida ohangdorlik va to'xtamlardan o'rinli foydalanishi,
- tarbiyada badiiy obrazlardan foydalanishi (na'muna ko'rsatish),
- o'qituvchi muloqot jarayonida ta'sirchan va badiiy so'zlardan o'rinli foydalanishi,
- xissiy-bo'yoqdor so'zlarning qo'llanilishi o'quvchilarda ishonch va yaqinlikni shakllantirishi.

Bugungi kun, maktab ta'limining poydevori bo'lgan boshlang'ich ta'lim o'qituvchisiga zamon talabidan kelib chiqqan xolda har tomonlama yetuk bo'lishini taqazo etmoqda. Bu borada nutqiy kompetentlikni rivojlantirishda badiiy adabiyotdan foydalanish o'z samarasini ko'rsatadigan omillardandir. Shu boisdan badiiy adabiyot o'qituvchining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda, ta'lim-tarbiya jarayonlarida uzluksiz foydalanish samarali natija ko'rsatishiga ishonamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M.Mirziyoyev, "Yoshlar forumi"dagi nutqidan. 25.12.2020yil
2. U.Yakibova. Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligi. TDPU ilmiy axborotlari. 2023, №3.
3. Toxirovna, K. F. (2024). O'qituvchilik Faoliyatida Deontologik Tayyorgarlikni Oshirish. Miasto Przyszłości, 51, 146-148.

4. Sahobiddin o'g'li, S. O., & Tohirovna, K. F. (2024). O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA YAPON TAJRIBALARINING AHAMIYATI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 141-144.
5. Kalandarova, F. T. (2024). KOMPETENTSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSI SIFATIDA. *Экономика и социум*, (5-1 (120)), 375-379.
6. Toxirovna, K. F. BO'AJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. Abdullayeva Nasibaxon Jo 'rayevna pfd, professor. *O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI*, 120.
7. Toxirovna, K. F. (2023). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI. *Scientific Impulse*, 2(13), 51-52.
8. Odilboyevich, J. X. THE INFLUENCE OF ACCENTUATION OF CHARACTER AND TENDENCY TO PSYCHOPATHY ON THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENTS. *THE ROLE OF DISCIPLINE" INTRODUCTION OF MEDISICAL PLANTS" IN THE FORMATION OF COMPETENCE OF SPECIALISTS IN THE TECHNOLOGY OF GROWING MEDISICAL PLANTS*, 94.
9. Odilboyevich, J. X. (2023). SHAXS IJTIMOIIY XIMOYASIZLIGI VA UNING OGISHGAN XULQ-ATVORIGA TASIRIDA SHAKILANADIGAN PSIXOANALITIK HIMOYA MECHANIZMLARI ORNI VA AXAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 33(2), 186-189.
10. Haydarjon, J. (2022). SHAXS IJTIMOIIY XIMOYASIZLIGINIOGISHGAN XULQ ATVORIGA TASIRINI IJTIMOIIY PSIXOANALITIK MECHANIZMLARI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(1), 9-12.
11. Odilboyevich, J. X., & Shokhrukhbek, M. (2023, April). The Role and Importance of (Ego) and (Id) in the Psyche of Children in Adolescence. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 28-33).
12. Odilboyevich, J. X., & Yuldashboyevich, A. S. (2024). SHAXSNING PSIXOLOGIK SENZITIVLIK DARAJASI VA UNING PSIXOLOGIK TIPOLOGIYASI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 145-148.
13. Odilboyevich, J. X. (2024). O'SMIRLIK YOSH DAVRIDA SHAXSDA SUITSID XOLATLARINI PROFILAKTIKA QILISH YO'LARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 111-114.
14. Одилбоевич, Ж. X. (2022). ШАХС ВА УНДАГИ ПСИХОПАТИЯ ХОЛАТЛАРИ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБЛАРИ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ. *PEDAGOG*, 5(7), 693-699.